

IQTISODIY RIVOJLANISHDA SIRKULAR IQTISODIYOTNING AHAMIYATI

Esbergenova Svetlana Xojakmetovna¹, Ilyasov Ziynat Azamatovich²

1 Nukus davlat texnika universiteti, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi

2 Nukus davlat texnika universiteti, "Iqtisodiyot va telekommunikatsiya injeneringi" fakulteti, Iqtisodiyot bakalavr ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: alpamys04@mail.ru; ziynatilyasov2006@gmail.com

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.358

Annotatsiya. Bu maqolada sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati, uning iqtisodiy o'sishda tutgan o'rni, zamonaviy innovatsiyalarning paydo bo'lishidagi hissasi, yashil iqtisodiyotda chiqindilarning qanday kamayishi hamda chiqindilardan resurs sifatida foydalanilishi o'rganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Sirkulyar iqtisodiyot, modulyar, chiqindi, elektron chiqindilar (e-chiqindi), ekologiya, innovatsiya.

THE IMPORTANCE OF THE CIRCULAR ECONOMY IN ECONOMIC DEVELOPMENT

Svetlana Xojakmetovna Esbergenova¹, Ziynat Azamatovich Ilyasov²

1 Lecturer, Candidate of Historical Sciences, Department of Social and Humanities, Nukus State Technical University

2 Second-year Bachelor's student in Economics, Faculty of Economics and Telecommunications Engineering, Nukus State Technical University

E-mail: alpamys04@mail.ru; ziynatilyasov2006@gmail.com

Abstract. This article examines the importance of transitioning to a circular economy, its role in economic growth, and its contribution to the emergence of modern innovations. It also explores how waste is reduced in a green economy and how waste can be utilized as a resource.

Keywords: Circular economy, modular, waste, electronic waste (E-waste), ecology, innovation.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiyot tarmoqlarining asosiy qismi chiziqli (linear) iqtisodiyot modeliga asoslangan. Bu model an'anaviy iqtisodiyotning asosi hisoblanib, iqtisodiy siklning bir chiziqli bo'lishiga, ya'ni resursdan foydalanilgan sharoitda ishlab chiqarish hamda iste'mol asosida hosil bo'lgan chiqindini tashlash tamoyiliga qurilgan. Sirkulyar iqtisodiyot esa bu modelga teskari ravishda chiqindi miqdorini minimallashtirish, chiqindilardan qayta resurs sifatida foydalanish, resurslardan foydalanish siklini ikki yoki uch barobarga oshirishga asoslangan.

Hozirgi vaqtda chiqindilar global muammoga aylanib, dunyoga o'zining ekologik va iqtisodiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Chiqindilar orasida plastik chiqindilar ekologiyaga yetkazilayotgan zararning sezilarli qismini tashkil etadi. UNEP tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili 19 million tonnadan 23 million tonnagacha plastik chiqindilar to'g'ridan-to'g'ri suv havzalariga tushmoqda.[1] Bu chiqindilar umumiy chiqindilarning faqatgina bir qismi bo'lib, suv resurslarining bunday ifloslanishida, ayniqsa, endi rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, Osiyo va Afrika qit'asida joylashgan davlatlar yetakchilik qilmoqda.

Chiqindilar hajmining juda yuqori tezlikda ortib borayotgan bir sharoitda sirkulyar iqtisodiyotning roli va ahamiyati borgan sari ortib bormoqda. Sirkulyar iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati nafaqat ekologik, balki iqtisodiy, ijtimoiy muammolarni hal qilishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ular qatorida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- Modulyar texnikalar ishlab chiqarish

- Ishlab chiqarish hajmini kamaytirib, asosan xizmat ko'rsatish hajmini oshirish (buzilgan yoki ma'nau eskirgan mahsulot tashlab yuborilishi o'rniga qayta ta'mirlanishi va modernizatsiya qilinishi)

- Ishlab chiqarishga chiqindining resurs sifatida kiritilishi hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish

- Chiqindilarni kamaytirishning yangi yo'llari topilishi jarayonida innovatsiyalarning payda bo'lishi

Misol tariqasida telefonlarni modulyar ko'rinishga o'tkazish orqali zamonaviy chiqindi turi — e-waste, ya'ni texnika chiplari va elektron tizim chiqindilarini kamaytirish bo'yicha bir qancha konsepsiyalar yuzaga kelmoqda. Ayrim konsepsiyalar bunda 100% qayta ishlangan mono-materiallardan foydalanishni taklif etadi.[2] Masalan, eski batareyalar, chip va korpuslarning eskirishi hamda yeyilishiga qaramasdan, ularning ma'lum bir qismi ishlashga yaroqli bo'ladi. Ularning ushbu murakkab mayda qismlarini qayta ishlatish e-waste (elektron chiqindi) miqdorini kamaytirishda muhim hisoblanadi.

Modulyar qurilmalar, xususan, mobil qurilmalarning bir qancha afzalliklari va kamchiliklari bor:

- Modulyar qurilmalar ishlab chiqarish yangi soha bo'lganligi sababli uning tannarxi bir muncha qimmat;

- Modulyar qurilmalarni ta'mirlash, ularning tuzilishi oddiyligi sababli ancha oson;

- Ma'nau eskirishdan birmuncha himoyalangan (qismlarni qayta almashtirish orqali);

- Ular uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni (uylar uchun — tashish, ta'mirlash, joylashtirish imkonini beruvchi asbob-uskunalar; mobil telefonlar uchun — batareya, kamera, qo'shimcha xotira) ishlab chiqarish yangi ish o'rinlarini yaratadi.

Hozirgi vaqtda sirkulyar iqtisodiyotga o'tish darajasi biroz past bo'lsa-da, faqatgina qayta ishlash tarmog'ining o'zida kamida 6,9 million kishi mehnat qiladi. Bu o'sish barqaror tendensiya bo'lib, 2030-yilgacha yangidan kamida 7 million doimiy ish o'ri paydo bo'lishini hamda innovatsiyalarning chiqindilarni kamaytirishga asoslanishini ko'rsatadi.

Sirkulyar iqtisodiyot yaratishi mumkin bo'lgan va hozirda paydo bo'layotgan kasblar:

- Chiqindilarni to'g'ri va saralash orqali yig'uvchilar (an'anaviy yig'ishdan farqli ravishda, tabiatga zarar yetkazmagan holda)

- Chiqindilar bo'yicha ilmiy tadqiqotchilar (masalan, chiqindidan foydali mahsulotlarni ajratib olish usulini aniqlovchilar)

- Har xil chiqindilardan tovar ishlab chiqaruvchi zavod xodimlari va ishchilari

- Buzilgan modulyar qismlarni qayta ta'mirlovchilar

Xulosa qilib aytganda, sirkulyar iqtisodiyot nafaqat chiqindini qayta ishlash, balki uni minimallashtirish, mahsulotlarning hayotiy siklini uzaytirish, tabiatga yetkaziladigan zararni kamaytirish hamda ijtimoiy muammolarni hal qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.unep.org/plastic-pollution>
2. https://www.izm.fraunhofer.de/en/abteilungen/environmental_reliabilityengineering/services/entwicklungsbegleitende-beratung/circular-design-lab/modest-circular-smartphone-concepts.html
3. <https://www.ilo.org/topics-and-sectors/circular-economy>